



O`SMIRLAR MA`NAVİYATINI SHAKLLANTIRISHNING İJTİMOİY- PSİXOLOGİK XUSUIYATLARI

Olimov Laziz Yarashovich,
Buxoro davlat universiteti dotsenti

Bahronova Mavluda O`tkir qizi,
Buxoro davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o`smirlardagi ma`naviyat msalalasining namoyon etilishi va rivojlanishini tadqiq etish hamda uning o`ziga xos ijtimoiy-psixologik omillarini takomillashtirish haqida fikr yuritilib, o`smir shaxsi ma`naviyati va shaxsiy sifatlarini rivojlantruvchi ijtimoiy-psixologik omillar, bilan bog`liq tadqiqot natijalarini bayon etilgan.

Kalit so`zlar: ma`naviyat, o`smir, ijtimoiy, shaxs sifatlari, tarbiya, milliy qadriyatlar

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ФОРМИРОВАНИЯ ПОДРОСТКОВОЙ ДУХОВНОСТИ

Олимов Лазиз Ярашович
доцент Бухарского государственного университета

Бахронова Мавлуда Ўткир кизи
магистрант Бухарского государственного университета

Аннотация: В данной статье рассматриваются исследования проявления и развития проблемы духовности у подростков и совершенствования ее специфических социально-психологических факторов, представлены результаты исследования.

Ключевые слова: духовность, подросток, социальные, личностные качества, воспитание, национальные ценности.

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE FORMATION OF TEENAGE SPIRITUALITY

Olimov Laziz Yarashovich
Associate Professor, Bukhara State University

Bahronova Mavluda O`tkir qizi
master student of Bukhara State University

Annotation: This article discusses the research of the manifestation and development of the issue of spirituality in adolescents and the improvement of its specific socio-psychological factors. The results of the research are presented.

Key words: spirituality, adolescent, social, personality qualities, education, national values

KIRISH. Dunyoda globallashuv jarayonining jadallahushi, o`ziga xos ijtimoiy taraqqiyot tamoyillariga mos ravishda shaxsni tarbiyalash va unga ijtimoiy-psixologik ta'sir qo'shatish tizimini takomillashtirishga bo`lgan ehtiyojning yanada ortib borayotganligini ko'rsatmoqda. O`zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko`lamli isloxoatlar talablariga mos keluvchi, intelektual salohiyati yuqori, keskin o`zgarishlarga tez moslasha oladigan, raqobat bardosh, mehnat bozorida mutaxassislar malakasiga qo'yilayotgan talablar darajasida samarali faoliyat yurituvchi shaxsni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi 472-sodan «Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqburzaliklarning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Mamlakatimiz psixologlari tomonidan ham o‘smir shaxsi rivojlanishida axloqiy normalarning mohiyatini, ma’naviy tarbiya tuzilmasi, vositalari va shakllarini ishlab chiqishda muayyan hissa qo‘sildi. Bu sohada G.B.Shoumarov, V.M.Karimova, E.G.G.oziyev, R.I.Sunnatova, Sh.R.Baratovlarning ishlarini alohida ta’kidlash zarur. Ayni paytda, bu sohada psixolog-olimlarimiz tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot ishlarni tanqidiy tahlil qilish mamlakatimiz psixologiyasi mazkur yo‘nalishda yanada kengroq doirada ilmiy izlanishlar olib borilishi lozimligini ko‘rsatadi. Ma’naviyat va axloqiy norma muammosi mamlakatimiz psixologlari, faylasuflari, sotsiologlari, tarixchilari, madaniyatshunoslari, pedagoglari tomonidan intensiv tadqiq etilayotgan bir paytda mazkur mavzuga bag‘ishlab psixologlarimiz tomonidan yaratilgan ishlar barmoq bilan sanarli darajada oz. Milliy tarbiyaning psixologik jihatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar esa yo‘q darajada.

Mazkur muammoning psixologik jihatlari, avvalo, shunda ko‘rinadiki, hanuzgacha shaxsnинг axloqiy rivojlanishiga samarali ta’sir ko‘rsatadigan psixologik omillar atroficha tadqiq etilmagan. Psixologiyamizda o‘smir shaxsi rivojlanishida axloqiy normalar tuzilmasi, ma’naviyat va psixikaning aloqadorligi masalalari ishlab chiqilmagan, bu sohaga oid terminologiyada ham noaniqlik va mavhumlik mavjud.

Buyuk nemis faylasuflaridan yana biri I.Kant ma’naviyatni o‘zini o‘zi anglash sifatida cheklab izohlamagan. Uning talqinida ma’naviyat “Insonni harakatlantiruvchi, jonlantiruvchi” tamoyildir. O‘zining “Sof aqlini tanqid” asarida ma’naviyat haqida shunday yozadi: “Ichki tuyg‘uning predmeti sifatida bu unsur nomoddiylik tushunchasini beradi; oddiy unsur sifatida mustahkamlik, butunlikni anglatadi; intellektual unsur sifatida shaxsni anglatadi; bularning barchasi birikib ma’naviyat tushunchasini vujudga keltiradi”.

Ma’naviyatni inson tabiatining o‘ziga xos xususiyati sifatida talqin qilish bilan birga, Kant insonning mohiyati ma’naviy taraqqiyotga intilishda namoyon bo‘ladi, deb ta’kidlagan edi.

Axloqiy norna masalasiga rus faylasuflaridan V.Solovyov, V.Rozanov, N.Berdyaev, A.F.Losev, Ye.Trubeskoy, P.Florenskiy va boshqalar ijodida ham muayyan o‘rin ajratilgan. Rus faylasuflarining ko‘philigi uchun axloqiy normani talqin qilishdagi umumiyl xususiyat shundaki, ular bu tushunchani pravoslavie mazhabi nuqtai nazaridan talqin qiladilar. Ularning bunday yondashuviga sabablardan biri, xristian dinida ilohni anglashdagi asosiy elementlardan biri “muqaddas Ruh”, “Ota ruh”) tushunchasidir. Ayni paytda, rus faylasuflarining ba’zilari, masalan, V.Solovyov, N.Berdyaevlar ma’naviyatni talqin qilishda pravoslavie aqoidlari doirasidan chetga chiqishadi.

Inson hayotining mazmuni stoiklarning diqqat markazida bo‘ldi. Stoiklarning fikriga ko‘ra, inson hayotining mazmuni tabiat bilan uyg‘un bo‘lishdadir. Ularning fikriga ko‘ra, donolik, mardlik, mo‘tadillik va adolat oliv qadriyat hisoblanadi. Ulardan keyingi o‘rinda olivjanoblik, qat’iyat, tirishqoqlik kabi sifatlar turadi. Stoiklar talqinida, dono odamlar ham ehtiroslarga berilishi mumkin, lekin bu ehtiroslar yaxshilikka yo‘naltirilgan bo‘ladi.

NATIJALAR.

O‘smirlarda ma’naviy ehtiyojlarning shakllanganini aniqlash ma’naviy tarbiyaning samaradorligini oshirishda muhim omillardan hisoblanadi. Shuni hisobga olib, yoshlarning ma’naviy ehtiyojlarini aniqlash maqsadida, quyidagi vazifalar qo‘yildi: 1) O‘smirlar ehtiyojlarining xususiyatlarini, ularning ma’naviy qadriyatlar to‘g‘risidagi tasavvurlarini,

ma'naviy taraqqiyotning muhim ko'rsatkichi bo'lgan o'zini o'zi tarbiyalash va takomillashtirishga tayyorligini aniqlash. 2) o'quv dasturlari va darsliklarning davlat ta'lif standartiga qay darajada mosligini tahlil qilish, bunda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'rganish jarayonida o'smirlarning ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish.

Belgilangan vazifalardan birinchisini amalga oshirishda bir qator psixologik tashxis metodikalaridan foydalanildi. Bu metodikalarni tanlashda o'smirlarda ma'naviy ehtiyojlar shakllangani ko'rsatkichlari hisobga olindi. Metodikalar majmuasi 3 guruhdan iborat bo'ldi. Ulardan birinchisi suhbat, anketa so'rovi, insho yozishdan iborat. Ularning maqsadi o'smirlardagi ma'naviyat shakllangani darajasi to'laligi, tizimliliginani aniqlashga qaratildi. Bu metodikalar ma'naviyat shakllanishining kognitiv jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

Metodikalarning 2-guruhi anketa so'rovi hamda yetakchi ehtiyojlarni aniqlash usulidan iborat bo'lib, ular o'smirlardagi baholash qobiliyati qay darajada shakllanganini aniqlashga xizmat qiladi. Bu metodikalar, shuningdek, o'smirlarning ma'naviy extiyojlarini xususiyatlarini o'rganish, ularning o'smir qadriyatlarini tizimiga kirgan yoki kirmaganini aniqlashda yordam beradi.

Metodikalarning uchinchi guruhi anketa so'rovi, insho, Tara Sinklerning metodikalaridan iborat bo'lib, ular o'smirlarning o'z bilim va munosabatlarini muayyan hatti-harakatlarda qo'llash ko'nikmasi shakllanganini aniqlashga yo'naltiriladi.

Har bir metodikalar guruhining o'z xususiyatlari mavjud. Metodikalarning birinchi guruhi o'smirning ma'naviyat to'g'risidagi bilimlari qay darajada to'liqligi va tizimliliginani aniqlashga yo'naltirilgan. O'smirlarga quyida keltiriladigan javob vraiantlaridan birini tanlash topshiriladi: Ma'naviyat bu:

- axloq,
- diniy e'tiqod,
- insonparvarlik,
- g'oyaviylilik,
- bilimdonlik,
- madaniyatilik,
- yoki ...

O'smirlardan yana hozirgi insonlarga ma'naviyat nuqtai nazaridan nima yetishmaydi degan savolga javob topish ham so'raladi. Bu savolga quyidagi javob variantlari keltiriladi: tarbiya, ichki madaniyat, halollik, insonparvarlik, ma'lumotlilik, yaxshilik,...

O'smirlarga "Hozirgi ma'naviyat" mavzuida insho yozish ham topshiriladi. Tajriba ko'rsatishicha, ba'zi o'smirlar ma'naviyat bu insonning vijdoni, ruhiy holati yoki ichki dunyosi deb ta'rif berishadi. O'smirlarning ko'pchiligi bu tushunchaga ta'rif berishda qiynalishadi. Ma'naviyat bu- axloq, madaniyat yoki insonparvarlik degan javoblar ko'proq uchraydi.

O'smirlarning ozchiligi bu tushunchani ma'nan rivojlangan shaxs uchun xos hisoblanadigan halollik, insoniylik, yaxshilik kabi tushunchalar bilan bog'lashadi.

O'tkazilgan tajribalar jarayonida aksariyat o'smirlar bu tushunchani to'g'ri baholay olmasligi ma'lum bo'ldi. Bunday holning sabablari bir nechta. Shulardan biri darsliklarda ma'naviyatni tushuntirishda ma'rifiy yondashuvlar ustuvorligida, ya'ni ma'naviyat fanini o'qitishda uni boshqa fanlardan farqlovchi xususiyatlar yetarli darajada hisobga olinmaganida. Matematika, fizika, botanika, biologiya kabi aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda ma'rifiy yondashuv bilan cheklanish, ya'ni o'quvchilarga bilim berish bilan cheklanish mumkin. "Milliy g'oya", "Ma'naviyat asoslari" singari fanlarni boshqa aniq va tabiiy fanlarni o'qitishdan farqi shundaki, ularni o'qitish jarayonida o'quvchilarda tushunchalarni shakllantirishdan tashqari chuqur e'tiqodni shakllantirish ham talab etiladi.

Eksperiment jarayonida o'smirlarda haqiqat, yaxshilik va go'zallik haqida muayyan

tushunchalar borligi aniqlandi. Lekin o'smirlarning aksariyatida bu tushunchalar ibtidoiy xolatda bo'lib ularda to'lalik, izchillik, tizimlilik yetishmaydi.

Metodikalarni qo'llash jarayonida o'smirlarning javoblariga asoslanib ularning ma'naviyat haqidagi bilimlarini uch darajaga bo'lib ifodalash mumkin. Bu darajalar quyi, o'rta va yuqori darajadan iborat. Bilimlarning yuqori darajasi ma'naviyat haqida to'la va aniq tasavvurlar mavjudligini, bu tasavvurlarda ma'naviyatning barcha muhim belgilari aks etishini nazarda tutadi. O'rta daraja o'smirlar ma'naviyat ning asosiy belgilari to'g'risida tasavvurga egaligini, lekin ma'naviyatning mohiyati bu tasavvurlarda to'la ochilmasligini ifodalaydi. Quyi daraja esa o'smirlarning mazkur kategoriya to'g'risida tasavvurlari juda elementar ekani, ularda bu kategoriyaning faqat 1-2 belgisi to'g'risida tushunchalar mavjudligini ifodalaydi.

Olingen natijalarga ko'ra baholash komponentining shakllangani 3 darajaga bo'lindi. Quyi daraja ma'naviy ehtiyojlarga qiziqishning cheklangani bilan xarakterlanadi. O'rta daraja esa ma'naviy ehtiyojlar barqaror ekanligi, lekin ularda tizimlilik yetishmasligini ko'rsatadi. Yuqori daraja esa ma'naviy ehtiyojlar barqarorligi va tizimliligi tarzida namoyon bo'lishini ifodalaydi.

2-jadval Eksperiment boshlanishida o'smirlarning ma'naviy ehtiyojlar shakllanganlik darajasi (%)

| Darajalar | Eksperimental guruh % | Nazorat guruh % |
|-----------|-----------------------|-----------------|
| Yuqori | 3 | 3 |
| O'rta | 29 | 31 |
| Quyi | 68 | 67 |

3-jadval: Eksperiment yakunida o'smirlarning ma'naviy ehtiyojlar shakllanganlik darajasi (%)

| Darajalar | Eksperimental guruh % | Nazorat guruh % |
|-----------|-----------------------|-----------------|
| Yuqori | 5 | 3 |
| O'rta | 48 | 34 |
| Quyi | 47 | 63 |

Olingen natijalar o'smirlarning ko'pchiligidagi baholash komponentining quyi darajada ekanligi, mazkur sifatning intellektual, kognitiv jihatlari yetarli darajada rivojlanmaganligidan dalolat berdi. Eksperiment yakunida bu ko'rsatkichlar sezilarli ravishda o'zgardi. Bu haqda tadqiqotimizning 3-bobida batafsilroq ma'lumotkeltiriladi. Tartibga solish komponetini aniqlash uchun metodikalarning uchinchi guruhi qo'llandi. Bu guruhi quyidagidan iborat: o'smirlarga quyidagi savollarga javob berish taklif qilindi:

Sizning fikringiz va hatti-harakatlaringiz o'rtaida ko'pincha tafovut mavjud bo'ladimi? Buning sababi nimada?

Harakatlaringiz, hisobotlaringizda emotsiyonallik ustuvormi yoki intellektuallik? Javoblarni yozma ravishda keltiring.

"Mening faxrlanadigan ishim", "Takrorlashni istamaydigan ishim" mavzularida kichik insho yozish taklif qilindi.

Berilgan mavzular bo'yicha o'smirlarning yozgan insholarida ko'pincha odamlarga ko'maklashish, hamdardlik, yaxshilik, do'stlik va sevgi bilan bog'liq harakatlar eng muhim harakatlar hisoblanadi.

O'smirlar u yoki bu vaziyatda amalga oshirgan hatti-harakatlarini tanqidiy tahlil qilib, ularning sababi va oqibatlarini o'rganishga harakat qilishadi. Bajarilgan tahlil va o'rganishlardan o'zlariga tegishli xulosalar chiqarishadi.

Savollarga berilgan javoblar hamda insholarning tahlili tartibga solish kopmonentining

uch darajasi mavjudligini ko'rsatdi: yuqori, o'rta va quyi. Yuqori ko'rstanich o'smir xulq-atvorida axloqiy sifatlarning barqarorligini va ustuvorligini ko'rsatadi. O'rta darajada axloqiy sifatlar barqaror bo'lmaydi. Quyi darajada xulq- atvor axloqiy me'yordarga mos kelmaydi.

Javoblar va insholar tahlili o'smirlarning aksariyatida tartibga solish komponenti quyi va o'rta darajadan iborat ekanligini ko'rsatmoqda. Javoblar va insholar natijalariga ko'ra mazkur sifatning shakllangani darajasiga asoslanib o'smirlar uch guruhga bo'lindi.

O'tkazilgan tashxislar o'smirlarning ko'pchiligidagi ma'naviy ehtiyojlar yetarli darajada shakllanmaganidan dalolat berdi.

O'smirlarning axloqiy normalarga oid bilimlarini diagnostika qilish maqsadida Fridmanning «Yaxshi degan so'z nima-yu, yomon deani nima?» metodikasidan foydalangan edik. O'tkazilgan tadqiqot natijalarining miqdori tahlili 1-jadvalda keltirilgan:

1-jadval

O'smirlarda ma'naviy-axloqiy sohaga oid tushunchalarning shakllanganlik darjasasi

| Guruholar | O'quvchilar miqdori (foizda) | ballar | |
|---------------|---------------------------------|------------------|-------------------------|
| | | eksperimentgacha | eksperimentdan keyin |
| eksperimental | 15-20 | 8 | 0 |
| | 20-25 | 36 | 9 |
| | 25-30 | 41 | 64 |
| | 30-35 | 14 | 27 |
| nazorat | 15-20 | 9 | 6 |
| | 20-25 | 27 | 33 |
| | 25-30 | 48 | 45 |
| | 30-35 | 12 | 15 |

Eksperimental guruhi va nazorat guruhi a'zolarining ma'naviyatga bergan ta'riflarini qiyosiy tahlil qilib aytish mumkinki, ma'naviy – axloqiy sohaga oid bilmlarni o'zlashtirish va ularni amaliyotga tadbiq qilish jarayonida o'smirlarning faol ishtirok etmasligi, ya'ni o'qituvchi bergan bilimlarni eshitish bilan cheklanishi ularni bu hodisalarga nisbatan befarq bo'lishiga olib keladi. Faqatgina reja asosida, sabr qanoat bilan maxsus o'tkazilgan tadbirlar natijasidagina bu mavzuga o'smirlarning qiziqiqishini uyg'otish mumkin. Qiziqishning uyg'onishi ma'naviy-axloqiy hodisalarni o'rganishda dastlabki qadamni tashkil etadi.

O'smirlarning ma'naviy-axloqiy hodisalarga emotsiyal munosabatini tahlil qilish uchun G.Fridmanning "Nima qilmoq kerak" metodikasidan foydalilanigan edi. Ularga muayyan vaziyatni bayon qilib, shunday vaziyat paydo bo'lsa, o'zlarini qanday tutishlari haqida so'zlab berish so'ralgan edi. Shu bilan birga, mazkur vaziyatda ular o'zlarini nima uchun aynan shunday tutishlari sababini izohlash ham topshirilgan edi. Tadqiqot natijalari 2-jadvalda keltirilgan:

2-jadval

Keltirilgan vaziyatlarda o'quvchilar tanlovining yo'nalishi

| guruholar | Eksperimental guruhi | | Nazorat guruhi | |
|--------------------------|----------------------|-------|------------------|-------|
| | eksperimentgacha | keyin | eksperimentgacha | keyin |
| Javoblar yo'nalishi % | | | | |
| Ma'naviy- axloqiy | 17 | 44 | 20 | 17 |
| Amaliy pragmatik | 40 | 31 | 43 | 45 |
| befarq | 43 | 25 | 37 | 38 |

Eksperimental guruhda nazorat guruhidagidan farqli ravishda, jiddiy o'zgarishlar yuz bergenini kuzatish mumkin. Eksperiment yakunida shu guruhda ma'naviy-axloqiy yo'nalishda javob bergen o'smirlar soni eksperiment boshlanishidagi nisbatan 24 foizga ortgan. Befrq yo'nalishda javob bergenlar soni esa 18 foizga kamaygan. Nazorat guruhida esa sezilarli o'zgarishlar yuz bermadi. Mana shu holat o'tkazilgan psixologik eksperiment o'smirlarning shaxsiy tanlovlari ko'proq ma'naviy-axloqiy yo'nalishda yuz bera boshlaganidan darak beradi.

Ma'naviy-axloqiy rivojlanishning xulq-atvor komponentini tashxis qilish uchun ekspert baholashi usulini kuzatish usuli bilan qo'shib ishlatdik. O'quvchilar dars jarayonida, darsdan tashqari tadbirlar (ekskursiyalar, shanbaliklar, qishloq xo'jalik ishlari) jarayonida yil bo'yli kuzatildi. Tadqiqot natijalari farazimizning to'g'riligini tasdiqladi. O'zlarining shaxsiy fikri va tanlovi asosida harakat qilishini bildirgan hsmirlarning 7 foizigina o'zlarini bildirgan fikrga amal qilishini namoyon etdi. Bunday hol ma'naviy-axloqiy tasavvur va fikrlar qattiq ishonch yoki e'tiqodga aylanmaguncha xulq-atvorda namoyon bo'lmasligini amalda ko'rsatdi. O'smirda juda to'g'ri ma'naviy-axloqiy tasavvur va tushunchalar bo'lishi mumkin, lekin amalda ularga rioya qilmaslik ham mumkin.

XULOSA. Shaxsnинг murakkab tuzilmasida ma'naviyatning alohida o'rni aniqlanmagani, bu o'rin shaxs tuzilmasidagi birnecha tizimlar bilan bog'liq ekanini uni tadqiq etishda murakkabliklarni vujudga keltirmoqda. Mazkur muammoning psixologik jihatlari, ma'naviyat shakllanishi va rivojlanishi jarayoniga ta'sir o'tkazuvchi psixologik mexanizmlar yetarli tadqiq etilmagani ma'naviy tarbiya samaradorligini oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Mazkur yo'nalishda eksperimental-psixologik tadqiqotlarning juda kamligi, mamlakatimizda esa maxsus o'tkazilgan bunday tadqiqotlarning deyarli yo'qligi vaziyatni yanada murakkablashtirmoqda.

O'smirlilik davrida shaxs o'zining ma'naviy-axloqiy rivojlanishida xal qiluvchi qadamlarni qo'yadi. Shu holatning o'zi ham o'smirlarni ma'nauiy-axloqiy tarbiyalash va bu jarayonga ta'sir o'tkazuvchi barcha omillarni, jumladan, psixologik mexanizmlarni tadqiq qilish qanchalik muhim ahamiyat kasb etishidan guvohlik beradi.

Mamlakatimizda bosilib chiqayotgan ba'zi monografiya, darslik, o'quv qo'llanmalari va risolalarda o'smirlarda axloqiy normalarning nsmoyon bo'lishi muammofiga soddallashtirilgan yondashuv, ya'ni uni faqat ma'naviyat bo'yicha bilimdonlikdan iborat, deb talqin qilish kuzatilmoqda. Psixologiya fanida faoliyat, jumladan, ma'naviy faoliyat singari hodisalar, uch komponentdan tashkil topishi isbotlangan. Bu komponentlar kognitiv, emotsiyonal va xulq-atvor komponentlari bo'lib, axloqiy faoliyat ham shu uch komponentning yig'indisidan tashkil topadi. O'tkazigan eksperimentlarimiz natijalaridan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, ma'naviy tarbiya sohasida hozirgi kunda ustuvorlik qilayotgan ma'rifiy yondashuv yetarli samara bera olmaydi. Bu yondashuv ma'naviyat masalalari bo'yicha o'smirlarni ma'lum darajada bilimdon qilishi mumkin, lekin, ularni ma'naviy e'tiqodli, ishi bilan so'zi bir shaxslar qilib tarbiyalash uchun yetarli emas. Bu yondashuv o'smirlarning bilim doirasini kengaytirishi mumkin, lekin shu bilimlarni amalda qo'llashga tayyorlash uchun ojizlik qiladi. Bunday holat mamlakatimizning hozirgi taraqqiyot bosqichida ma'naviy tarbiya sohasida kun tartibiga qo'yilayotgan vazifalarni hal qilish uchun javob bera olmaydi. O'smirlarni ma'naviy-axloqiy rivojlantirish masalasiga tizimli yondashuv, jumladan, bu jarayonda kognitiv, emotsiyonal va xulq-atvor komponentlarini bir-biriga mutanosib ravishda rivojlantirish belgilangan maqsadlarga erishishning eng samarali usuli ekan haqidagi faraz tasdiqlandi.

O'smirlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash ularning o'zlarini o'zlarini taribyalashga

yo‘naltirish bilqn qo‘ib olib borilgandagina yuqori samarali bo‘lishi mumkinligi haqidagi faraz ham o‘z tasdig‘ini topdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Maxmudova Z.M., Olimov L.Я. O`smirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish. Monografija. “Buxoro viloyat bosmaxonasi MChJ” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 160.

Maxmudova Z.M., Olimov L.Я. Psychodiagnostics. O‘quv qo‘llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. Toshkent 2014. -B. 298.

Olimov L.Я. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.

Olimov L.Я. Umumiy psixodiagnostika. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.

Olimov L.Я., Maxmudova Z.M.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o‘quv qo‘llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. T. 2020. -B. 820.

Olimov L.Я., Nazarov A.M.. Xulqi o‘gishgan bolalar psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. “Tafakkur avlod” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 490.

Olimov L.Я., Bahronova M.O‘.O‘smirlar ma’naviyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 407-413 p.

Olimov L.Я., M.B.Rasulova. O‘s米尔 shaxsi shakllanishida ahloqiy normalarning ijtimoiy-psixologik ahamiyati. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 675-683 p.

Олимов Л.Я. Социально-психологический подход к исследованию конфликтов. Вестник интегративной психологии.(журнал для психологов). 2019 год, Выпуск 19. 379-381 ст.

Олимов Л.Я. Теоретические основы педагогической технологии. Вестник интегративной психологии.(журнал для психологов). 2018 год, Выпуск 18. 163-165 ст.

Олимов Л.Я. Теоретический анализ проблемы креативности в психологии. Вестник интегративной психологии журнал для психологов. Выпуск № 23, 2021 г. С 237-241.

Олимов Л.Я., Жумаев Н.З. Педагогическое общение педагога со студентами. Вестник интегративной психологии.(журнал для психологов). 2017 год, Выпуск 15. 198-203 ст.

Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Диагностика Управлеченческих Способностей. Вестник интегративной психологии журнал для психологов. Выпуск № 2, 2020 г. С 204-209.

Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Психологические механизмы девиантного поведения. Психология XXI века. Ярославль., 2020. –С. 125-127.

Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Стрессли вазиятларда психологик химоя механизмлари ва копинг хулқ-автор намоён бўлишининг ижтимоий психологик хусусиятлари. Psixologija. Учредители: Бухарский государственный университет, 31-38.